YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 1-aprel, №12 (8030)

YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB, YANGI HAYOT, YANGI TARIX, YANGI KELAJAK YARATAYLIK!
Shavkat MIRZIYOYEV



BEKOBODDA MILLIY QADRIYATLAR TANTANASI

Ming shukrlar bo‘lsinki, jonajon yurtimizda yilning to‘rt faslida ham xalqimizni o‘zaro jips va hamjihat qiluvchi, qalblarimizni yanada yaqinlashtiruvchi bayramlar bisyor. El-yurtimiz uchun ana shunday qadrli shodiyonalardan biri – yangilanish va yasharish ayyomi bo‘lgan Navro‘zi olamdir.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan Navro‘zni yangi hayot, qut-baraka va sharqona yilboshi sifatida juda intiqlik bilan kutishgan. Qahraton sovuqlar o‘tib, ko‘klam havosi kelishi bilan bejiz katta-katta tantanalar, xalq sayillari o‘z-o‘zidan boshlanib ketmagan. Chunki, bu kun tabiatda ham, qalblarda ham muzlar erib, yuraklar iliqlik va mehr-oqibatga to‘lgan, ko‘ngillar bahor tuprog‘idek yumshagan. Insonlar bir-birlarini avvalgidan ham ko‘proq ardoqlab, hayotning qadriga yanada teranroq yeta boshlashgan.



Muhtaram Prezidentimiz ana shu bebaho qadriyatlarni barchamizga yana bir bor eslatib, bu yilgi tantanalarni **“Navro‘zni ulug‘lash – insonni ulug‘lashdir!”** degan ezgu g‘oya ostida o‘tkazishni belgilab berdilar. Jannatmakon diyorimizning har bir shahar va tumanida, qishloq va ovullarida, mahallalar va guzarlarida ushbu yuksak shior ostida bayramlar, to‘y-u tomoshalar, xalq sayillari ko‘tarinki ruhda bo‘lib o‘tdi. Xususan, Bekobod tumanida ham Navro‘z umumxalq bayrami tantanavor va ko‘tarinki ruhda nishonlandi. Buni bayram sayliga va konsert dasturiga kelgan tuman ahlining yonib turgan ko‘zlari-yu samimiy tabassumlaridan sezish mumkin.

Karnay-surnay sadolari ostida boshlangan tantanalar asta-sekin quloch yoyib, kelganlarning e’tiborini turli yo‘nalishlarga chorladi. Xususan, konsert dasturi o‘tkaziladigan maydon atrofida tuman tashkilotlari tomonidan o‘ndan ortiq pavilionlar tashkil etilib, ularda har bir tashkilot o‘ziga xos faoliyati va yutuqlarini namoyon etdi. Ayni vaqt ushbu maskanlarda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an’analarimizning yorqin ifodasi ham o‘z aksini topib, tashrif buyuruvchilarga boy ma’naviy taassurot ulashdi.

Shu bilan birga, bayram doirasida turli sport o‘yinlari ham tashkil etildi. Arqon tortish musobaqalarida jamoalar o‘zaro kuch sinashib, tomoshabinlarning qizg‘in qo‘llab-quvvatlovi ostida bellashdi. Milliy kurash bahslari esa polvonlarning epchilligi va matonatini namoyon etdi. Karate chiqishlari yoshlarning intizomi va jismoniy tayyorgarligini ko‘rsatib bergan bo‘lsa, kamondan otish musobaqalari merganlik va diqqatni sinovdan o‘tkazdi. Ushbu sport bellashuvlari bayramga jo‘shqinlik bag‘ishlab, ishtirokchilar va tomoshabinlarga birdek zavq ulashdi.

Bayramning badiiy qismi ham saylga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Konsert dasturida O‘zbekiston xalq artisti Og‘abek Sobirov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar — G‘iyos Boytoyev, Hosila Rahimova hamda taniqli ijodkor Alijon Isoqovning ishtiroki bayram fayzini yanada oshirdi. Ular ijro etgan kuy-qo‘shiqlar tomoshabinlar tomonidan katta olqishlar bilan kutib olinib, maydonda chinakam bayramona kayfiyatni namoyon etdi. Shuningdek, tuman ijodkorlari ham o‘z chiqishlari bilan bayram dasturini yanada boyitdilar. Jajji bolajonlarning ijrolari hamda milliy folklor ansamblining kuy-qo‘shiqlari tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi.

Bekobod tumani hokimi Z.Nizomiddinov tadbir ishtirokchilarini Navro‘z umumxalq bayrami bilan samimiy tabriklab, o‘z nutqida tumanda amalga oshirilgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari hamda kelgusidagi ustuvor rejalar haqida batafsil to‘xtalib o‘tdi. Jumladan:

“O‘tgan yilda tumanimizda budjetdan jami **370 milliard** so‘mlik qurilish ishlari amalga oshirildi. Xususan, maktablar, bolalar bog‘chalari, sog‘liqni saqlash va sport muassasalari hamda mahalla idoralari – jami **34 ta** ijtimoiy obyektlar qurildi va ta’mirlandi.

Tuman markazidagi **51 ta** ko‘p qavatli uylar va **105 kilometr** yo‘llar ta’mirlandi. Shuningdek, **44 kilometr** markazlashgan ichimlik suvi tarmog‘i tortilib, aholining ichimlik suv bilan ta’minlanganlik darajasi **80 foizga** yetkazildi.

O‘tgan yilning eng muhim voqealaridan biri – muhtaram Prezidentimizning bizga sovg‘alari sifatida **40 ming** aholimizga qulaylik yaratgan Sirdaryo ustida muhtasham ko‘prik barpo etildi.

“Zafar” va “Dalvarzin” hududi o‘rtasida piyodalar va velosiped yo‘laklari qurilib, “Toshkent” ko‘chasini **24/7 konsepsiyasi** bo‘yicha rekonstruksiya qilish ishlari yakunlanmoqda.

Markaziy xiyobonni rekonstruksiya qilish, yo‘l chetlarini yashil hududga aylantirish hamda ichki irrigatsiya tizimini yaxshilash ishlari jadal sur’atlarda davom ettirilmoqda.

E’tibor bering, joriy yilda tumanimizda ijtimoiy obyektlarni qurish va xizmat ko‘rsatishni yaxshilash uchun jami **450 milliard** so‘mdan ortiq mablag‘lar yo‘naltiriladi. Ushbu mablag‘lar evaziga, tuman markaziy tibbiyot birlashmasi eng ilg‘or va zamonaviy andozalarda modernizatsiya qilinadi, qo‘shimcha yangi binolar quriladi hamda noyob uskunalar bilan jihozlanadi.



Dastlabki qiymati **40 milliard** so‘m bo‘lgan ushbu loyihani amalga oshirish orqali, avvalo, Bekobod va Bo‘ka tumanlari hamda Bekobod shahrida yashovchi 400 mingdan ortiq aholi uchun yengillik va qulaylik yaratiladi. Qolaversa, qo‘shni viloyatlar va Tojikiston Respublikasidan keluvchi bemorlar uchun tibbiy turizm bo‘yicha mintaqaviy xab sifatida xizmat qiladi.

Tumanimiz tarixida mutlaqo yangi va yirik loyihalar – **25 ming** aholiga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston” massivi, “Bekobod – Bo‘ka – Pistkent – Nurafshon – Toshkent” temir yo‘li qurilishiga tez kunlarda start beriladi.

Bunyodkorlik ishlarining davomi sifatida, tuman markazida qurilgan **400 o‘rinli** Ay-Ti parkni alohida qayd etish lozim. Chunki ushbu zamonaviy inshoot salohiyatli yoshlarni o‘zida qamrab olib, tumanimizning eng ilg‘or va o‘tkir zehnli yoshlarini butun dunyoga olib chiqadi.

Bekobod tumani yoshlari erishayotgan yutuqlar borasida so‘z ketganda, mental arifmetika bo‘yicha Dubay shahridagi jahon chempionatida 11-maktabning 4-sinf o‘quvchisi Mamadaliyev Yorqinbek 1-o‘rinni qo‘lga kiritgani va “Super chempion” unvoniga sazovor bo‘lganini faxr bilan aytmoqchiman.

Shuningdek, 42-maktabning 7-sinf o‘quvchisi Suvonqulova Odina “Kitobxon-Kids” respublika tanlovida faxrli 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Odinaning ushbu yutug‘i tumanda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda namuna bo‘ldi va uning xonadonida **5 000 ta** kitobdan iborat kutubxona tashkil etib berildi. Endi 14 yoshli qizchamizning uyida o‘z shaxsiy kutubxonasi bor.

Umuman, o‘tgan bir yil davomida maktab kutubxonalariga **15 mingdan** ziyod badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Natijada, maktab kutubxona fondlari **111 mingdan** oshdi.

Shuningdek, joriy yilda tumanda Olmaliq davlat texnika institutining filiali o‘z faoliyatini boshlaydi va yangi o‘quv yilidan kamida **300 nafar** talabalarni qabul qiladi.

O‘tgan yili qariyb **1,5 ming** nafar yoshlar zamonaviy kasb va tillarga o‘qitilib, doimiy bandligi ta’minlandi. Ulardan **600 nafariga** jami **1,8 milliard** so‘m ko‘maklar ko‘rsatildi.

Bu yil yana **800 nafari** kasblar va xorijiy tillarga o‘qitilib, “Yoshlar daftari”da turgan **680 nafariga 2,7 milliard** so‘mlik ko‘maklar ko‘rsatiladi.

Agar o‘tgan yili yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish uchun **16,5 milliard** so‘m imtiyozli kreditlar ajratilgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkichni yanada oshirib, **22,5 milliard** so‘mga yetkazamiz.

Joriy yilda **1,5 ming** nafar ishsiz xotin-qizlar kasbga o‘qitilib, tumanda amalga oshirilayotgan loyihalarda **5200 nafar** xotin-qizlar bandligi ta’minlanadi. Tadbirkorlik qilish istagidagi ehtiyojmand xotin-qizlarga **2,6 milliard** so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan”, deya ta’kidladi tuman hokimi.

Xulosa qilib aytganda, Bekobod tumanida o‘tkazilgan Navro‘z sayli nafaqat bahor bayrami, balki xalqimizning birligi, mehr-oqibati va inson qadri ulug‘lanadigan ezgu qadriyatlar ifodasi bo‘ldi. Bayram davomida namoyon bo‘lgan samimiylik, xalqona shukuh va ko‘tarinki kayfiyat yurtimizda inson manfaatlari eng oliy qadriyatga aylanganining yana bir amaliy ifodasidir. Zero, inson qadri ulug‘langan yurtning ertasi ham, kelajagi ham nurli va barqaror bo‘ladi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

BUNYODKORLIK ISLOHOTLARI

BEKOBODDA YANGI DEHQON BOZORI QURILISHIGA START BERILDI!



Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq, Bekobod tumani Qoraqo‘yli mahallasi hududida zamonaviy dehqon bozori qurilishiga rasman start berildi. Ushbu loyiha hudud infratuzilmasini rivojlantirish, savdo tizimini zamonaviylashtirish hamda aholi uchun yanada qulay va xavfsiz sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Tadbirda tuman rahbarlari, mutasaddi tashkilotlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Yig‘ilganlar yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan islohotlar uchun shukronalik bildirib, duolar qilishdi.

Mazkur loyiha 5 gektardan ziyod maydonda amalga oshirilib, zamonaviy me’morchilik asosida barpo etiladi. Bozor hududida savdo rastalari, fermer va dehqonlar uchun alohida joylar, mahsulotlarni saqlashga mo‘ljallangan sovutkichli omborxonalar, sanitariya-gigiyena talablari asosidagi xizmat ko‘rsatish shoxobchalari hamda keng avtoturargohlar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Eng muhim jihatlardan biri — bu yerda raqobatbardosh savdo muhiti shakllantirilib, mahsulotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga yetkazish imkoniyati kengaytiriladi. Shuningdek, zamonaviy to‘lov tizimlari joriy etilishi orqali savdo jarayonlari yanada shaffof va tezkor bo‘lishi ta’minlanadi.

Loyiha natijasida 600 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi kutilmoqda. Barpo etilajak dehqon bozori nafaqat savdo-sotiqni rivojlantiradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilar va fermerlar uchun keng imkoniyatlar yaratib, hudud iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga sezilarli hissa qo‘shadi.

Baxtiyor UMIROV

Yangi loyiha



TARAQQIYOT SARI MUHIM QADAM

Bekobod tumani Xonobod mahallasi hududida “PAS TROUT” intensiv baliqchilik majmuasiga qarashli “Shirinbuloq” intensiv baliqchilik majmuasi qurilishiga rasman start berildi.

Tadbirda tuman hokimi, prokurori, ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i va soliq inspeksiyasi rahbari hamda mahalla faollari ishtirok etib, barqaror iqtisodiy rivojlanish, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari hamda aholi bandligini ta’minlash borasidagi islohotlar haqida fikr bildirdilar.

Intensiv texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan ushbu majmua baliqchilik sohasida yuqori samaradorlikka erishish, zamonaviy, ilmiy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish hamda eksportbop mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, loyiha hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mahalliy aholining daromad manbalarini kengaytirishda muhim omil bo‘lishi kutilmoqda.

Mazkur loyiha doirasida Vengriya tajribasiga asoslangan holda yuqori naslli ona baliqlar olib kelinadi hamda sun’iy ko‘paytirish, inkubatsiya va intensiv o‘stirish texnologiyalari to‘liq joriy etiladi. Zamonaviy inkubatsiya sexi, suv resurslarini tejovchi tizimlar va avtomatlashtirilgan oziqlantirish uskunalari yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, loyiha Toshkent viloyati va unga yaqin hududlarni sifatli baliq chavoqlari bilan uzluksiz ta’minlashga xizmat qilib, kelgusida qo‘shni hududlarga ham mahsulot yetkazib berish imkoniyatini yaratadi.

Akrom MAMADALIYEV

JARAYON



“SHINJON” USULI AMALIYOTDA

Bekobod tumanida paxtachilik sohasida ilg‘or tajribalarni keng joriy etish, hosildorlikni oshirish hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida amaliy seminar tashkil etildi.

Seminarda Toshkent viloyati hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Xurshid Qoraboyev, tuman mutasaddilari, fermer xo‘jaliklari rahbarlari hamda xitoylik agronomlar ishtirok etdi. Ishtirokchilar sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi texnologiyalarning samaradorligi hamda paxta yetishtirishda ilg‘or yondashuvlarning ahamiyati yuzasidan fikr almashdilar.

Seminar davomida paxtani “Shinjon” usulida, ya’ni plyonka ostiga ekish texnologiyasining afzalliklari amaliy jihatdan ko‘rsatib berildi. Ushbu usul urug‘ unib chiqish jarayonini tezlashtirishi, namlikni saqlash va begona o‘tlar rivojlanishini kamaytirish orqali hosildorlikni sezilarli darajada oshirishi bilan ajralib turadi.

Ayni paytda hududlarda zamonaviy texnikalar jalb etilib, yerlarni sifatli tayyorlash, ekish ishlarini qisqa muddatlarda va yuqori agrotexnik talablar asosida amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Bu esa dehqonlar mehnatini yengillashtirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Shuningdek, seminar davomida suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash, resurslardan oqilona foydalanish hamda agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida bajarish mo‘l hosil olishning eng muhim omillaridan biri ekani alohida ta’kidlandi. Mutaxassislar tomonidan zamonaviy yondashuvlar asosida paxta yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Joriy yilda ham paxta ilg‘or “Shinjon” texnologiyasi asosida 76/10 sxemada, plyonka ostiga ekish usulida yetishtirilmoqda. Mazkur usul hosildorlik va mahsulot sifatini oshirish, suv sarfini kamaytirish hamda tuproq unumdorligini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Seminar yakunida dehqon va fermerlarga agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish hamda yuqori hosildorlikka erishish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.

Madina MIRZAAHMEDOVA

O‘quv seminari

KARTOSHKA YETISHTIRISH TAJRIBASI



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrdagi “Respublikada kartoshka yetishtirishni ko‘paytirish va urug‘chilikni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-239-sonli qarori ijrosi doirasida Bekobod tumanida kartoshka yetishtirish va urug‘chilikni rivojlantirishga bag‘ishlangan o‘quv-amaliy seminar o‘tkazildi.

Seminar davomida global iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining cheklanishi sharoitida qishloq xo‘jaligida barqaror hosildorlikka erishish, zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish hamda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Mutaxassislar tomonidan kartoshkachilikda yuqori hosildorlikka erishish uchun urug‘ tanlash, ekish me’yorlari, sug‘orish tizimlari va parvarishlashning ilg‘or usullari bo‘yicha batafsil tushuntirishlar berildi.

Seminarning amaliy qismida 5 gektar maydonga 10 tonna sifatli kartoshka urug‘i ekildi. Jarayon davomida zamonaviy ekish texnikalari qo‘llanilib, mutaxassislar tomonidan ekish texnologiyasi, tuproqni tayyorlash, oziqlantirish hamda kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berildi.

Bunday amaliy o‘quv-seminarlar qishloq xo‘jaligida ilg‘or tajribalarni keng joriy etish, hosildorlikni oshirish, urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Gulnoza ATAMURODOVA

RAHBAR VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Ochiq muloqot



Bekobod tumanida yoshlar bilan ochiq va samimiy uchrashuv tashkil etildi. Tadbirda Toshkent viloyati DXX boshqarmasi boshlig‘i, viloyat prokurori, Toshkent viloyati IIBB boshlig‘i, Yoshlar ishlari viloyat boshqarmasi rahbari, tuman hokimi, hududdagi korxona va tashkilotlar rahbarlari hamda bir guruh yoshlar ishtirok etdi.

Uchrashuv yoshlar bilan muloqot, ularning dolzarb muammolari va takliflarini eshitish maqsadida tashkil etilgan bo‘lib, samimiy va konstruktiv muhitda o‘tdi. Yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollarga to‘liq va batafsil javob olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Savol-javoblar davomida dolzarb masalalar muhokama qilindi, tajribali rahbarlar yoshlar bilan o‘z bilim va maslahatlarini o‘rtoqlashdi. Bu esa uchrashuvga alohida samimiyat va ruh bag‘ishladi.

Tadbir yakunida ilk bor fuqarolik pasportini olgan yoshlar uchun tantanali pasport topshirish marosimi o‘tkazildi. Shu bilan birga, uchrashuvda faol ishtirok etgan va o‘z fikrlarini bildirgan yoshlar munosib taqdirlandi. Bu kabi rag‘batlantirishlar yoshlarni faollikka undash, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish va jamiyatdagi o‘rni hamda roli haqida tushuncha berishda muhim vosita hisoblanadi.

Bunday uchrashuvlar, rahbarlar bilan bevosita muloqot yoshlar orasida ishonchni mustahkamlashga, ijtimoiy masalalarni hal etishda hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga sezilarli darajada hissa qo‘shadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA

Mutaxassis maslahati

VIRUSLI GEPATIT A: HIMOYA CHORALARI

Virusli gepatit A — jigarni zararlovchi, o‘tkir yuqumli kasallik bo‘lib, asosan iflos qo‘l, zararlangan suv yoki oziq-ovqat orqali yuqadi. Kasallik ko‘pincha bolalar orasida uchraydi va jamoat joylarida tez tarqalishi mumkin. Shu sababli aholining virusli gepatit A ga qarshi emlanishi, xususan 1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarni to‘liq qamrab olish muhim ahamiyatga ega.

Gepatit A odatda umumiy holsizlik, isitma, ishtaha yo‘qolishi, ko‘ngil aynishi va qorin og‘rig‘i bilan boshlanadi. Keyinchalik teri va ko‘z oqi sarg‘ayishi, siydik



rangining to‘q tusga kirishi kabi alomatlar paydo bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda kasallik og‘ir kechib, jigar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, davolashdan ko‘ra kasallikning oldini olish ancha samaralidir.

Virusli gepatit A ga qarshi emlash — kasallikdan himoyalanishning eng samarali usullaridan biridir. Emlash orqali organizmda virusga qarshi mustahkam immunitet shakllanadi. Ayniqsa, 1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ko‘p vaqtini o‘tkazishi sababli, ular orasida emlashni to‘liq qamrab olish kasallik tarqalishining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

Kasallikning profilaktikasida emlash bilan bir qatorda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish ham katta ahamiyatga ega. Jumladan, qo‘llarni ovqatlanishdan oldin va hojatxonadan keyin sovun bilan yaxshilab yuvish, faqat toza va qaynatilgan ichimlik suvidan foydalanish, meva va sabzavotlarni yaxshilab yuvib iste’mol qilish zarur. Shuningdek, bolalar o‘ynaydigan joylar va ta’lim muassasalarida tozalikni saqlash kasallikning oldini olishga yordam beradi.

Ota-onalar farzandlarining salomatligiga e’tiborli bo‘lishlari, ularni o‘z vaqtida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishlari va belgilangan jadval asosida emlatishlari zarur. Tibbiyot muassasalari tomonidan olib borilayotgan emlash tadbirlarida faol ishtirok etish orqali jamiyatda sog‘lom va immuniteti mustahkam avlodni shakllantirish mumkin.

Temur UMAROV,
Bekobod tuman Sanepid bo‘limi bosh shifokori

DEPUTAT NAZORATI

HUDUDIY MASALALAR O‘RGANILDI



2026-yil 24-mart kuni Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi deputati Baxtiyor Ortiqov Bekobod tumaniga tashrif buyurdi. Tashrifning asosiy maqsadi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari, Oliy Majlis Palatalari va Hukumat qarorlari hamda oliy darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlar asosida ishlab chiqilgan “Yo‘l xaritasi” doirasida tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni, shuningdek, tashabbusli byudjet jarayonlarida 50 ta va undan ko‘p ovoz to‘plagan, lekin g‘olib bo‘lmagan loyihalarni o‘rganishdan iborat bo‘ldi.

Tashrif davomida deputat tumandagi bir qator muhim loyihalar bilan tanishdi. Jumladan, “O‘zbekiston” MFYda 58-maktab hududida sun’iy qoplamali futbol maydoni va workaut maydonini tashkil etish, “Do‘stlik” MFYda 23-sonli MTT uchun yangi bino qurish, “O‘rikzor” MFYda Navro‘z, Olmazor, O‘zbekiston va O‘rikzor ko‘chalarini asfalt qilish hamda “Qolg‘onsir” MFYdagi Qo‘shko‘l ko‘chasini 2700 metr asfaltlash loyihalari diqqat markazida bo‘ldi. Ushbu loyihalar nafaqat infratuzilmani yaxshilash, balki aholining kundalik hayotini qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Deputat mahallalarda aholi va mahalla yettiligi vakillari bilan suhbatlashdi. Ularning ehtiyojlari, taklif va tavsiyalari diqqat bilan tinglandi, amaliy yechimlar ishlab chiqish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Bu o‘z navbatida, xalq bilan bevosita muloqot orqali ularning fikrini eshitish va ijtimoiy masalalarni hal etishda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Tashrif jarayonida deputatga xalq deputatlari tuman Kengashi raisi, O‘zbekiston mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi rahbari Y.Mo‘minova va xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati mudiri Q.Bobojonov hamrohlik qildilar. Shuningdek, O‘zLiDeP tuman Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari va apparat rahbari A.Rasulov ham tashrif davomida faol ishtirok etdi.

Bunday tashriflar yoshlar va aholining ehtiyojlarini tushunish, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni yanada samarali amalga oshirish va tumandagi ijtimoiy hayotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Deputatning mahallalar va loyihalar bilan yaqindan tanishuvi, aholining fikrini eshitishi, shuningdek, tashabbuskor loyihalarni rag‘batlantirish orqali, tumandagi taraqqiyot jarayonini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi.

Abdujabbor RASULOV,
O‘zLiDeP tuman Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari, apparat rahbari

E’lonlar

Bekobod tumani “Bekobod EFFEKT” MCHJning yumaloq muhri va to‘trburchak shtampi yo‘qolganligi **sababli haqiqiy emas deb topilsin.**

Abdusalomov Samandar Ulug‘bek o‘g‘liga tegishli 2024-yil 26-aprelda Bekobod tumani IIB tomonidan berilgan QKN4399240 raqamli harbiy guvohnoma yo‘qolganligi **sababli haqiqiy emas deb topilsin.**

Xushxabar

YILNING ENG YAXSHI DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI XODIMI



Joriy yilning 27–28-mart kunlari Adliya vazirligi tomonidan respublika bo‘yicha “Yilning eng yaxshi adliya xodimi” tanlovi o‘tkazildi. Tanlov 4 ta nominatsiya bo‘yicha eng munosib xodimlarni aniqlash va ularning professional faoliyatini e’tirof etish maqsadida tashkil etildi.

Tanlovda Toshkent viloyatidan ham tajribali adliya xodimlari ishtirok etdi. Jumladan, Bekobod tumani Davlat xizmatlari markazi direktori Ubaydulla Mirzayev faol ishtirok etib, o‘z salohiyatini namoyish etdi.

Tanlov natijalariga ko‘ra, vakilimiz Ubaydulla Mirzayev respublika bo‘yicha “Yilning eng yaxshi Davlat xizmatlari markazi xodimi” nominatsiyasida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ushbu yutuq nafaqat shaxsiy mehnatning natijasi, balki butun Bekobod jamoasining professional salohiyatini ko‘rsatadi.

Qahramonimizning yutug‘i orqali Bekobod nomi viloyatda, respublikada munosib himoya qilindi. Hukumat va jamoatchilik tomonidan yuqori baholangan bu yutuq faol va mas’uliyatli adliya xodimlarining mehnati, innovatsion yondashuvi va samarali faoliyatining natijasi ekanligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, yutuq bekobodlik adliya xodimlari va barcha hamkasblarini rag‘batlantiruvchi omil bo‘lib, yosh mutaxassislar uchun ham namunali ish tajribasi sifatida xizmat qiladi.

Biz Bekobod tumani Davlat xizmatlari markazi direktori Ubaydulla Mirzayevni va butun Bekobod jamoasini ushbu katta yutuq bilan samimiy tabriklaymiz, kelgusida ularning yanada katta marralarni zabt etishiga ishonamiz.

Hasan ARTIKOV

Jinoyat va jazo



ASR VABOSI

2025-yil 17-noyabr kuni Sirdaryo viloyati IIB TQH JQB, DXX Sirdaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi xodimlari hamda Boyovut tumani IIB TQH JQB tezkor xodimlari tomonidan “T” ismli shaxsning arizasiga asosan Boyovut tumani “Yangi Avlod” MFY hududida o‘tkazilgan “Nazorat ostida olish” tezkor-qidiruv tadbiri davomida fuqaro Anorov G‘ayrat hamda Rashidov Otabek oldindan jinoiy til biriktirib, bir guruh bo‘lib, “T” ismli shaxsga xaridor sifatida jalb qilinganda 2.000.000 so‘m evaziga qora rangli poliester paketga o‘ralgan, og‘irligi 5,012 gramm bo‘lgan “Gashish” giyohvandlik vositasini sotgan vaqtida ushlandi.

Sudga oid kimyoviy ekspertizaning 2025-yil 17-noyabr kunidagi 145-sonli xulosasiga ko‘ra, fuqaro G‘.Anorov tomonidan “T” ismli shaxsga sotilgan va ekspertizaga taqdim etilgan o‘zidan o‘tkir hid tarqatuvchi faol giyohvand modda – tetrahidrokannabinol mavjudligi, ushbu modda “Gashish” deb atalishi va umumiy og‘irligi 5,012 (besh butun mingdan o‘n ikki) grammga tengligi aniqlangan.

Bundan tashqari, aynan shu tezkor-qidiruv tadbiri davomida Rashidov Otabekning shimining cho‘ntagidan kelajakda sotish maqsadida 9 dona qora rangli sellofan paketga qadoqlangan, jami og‘irligi 19,393 gramm bo‘lgan “Gashish” giyohvandlik vositasi mavjudligi aniqlanib, ashyo-dalil sifatida olingan. O‘tkazilgan sud majlisida sudlanuvchilarga tegishli jazolar tayinlangan.

Xulosa shuki, bugungi xavfli va insonlar uchun katta fojialar keltirib chiqarish ehtimoli yuqori illatlarga qarshi kurash lozim bo‘lgan zamonda hushyorlikni oshirish, har daqiqada ogoh bo‘lish barcha fuqarolar uchun majburiyatdir.

Saydulla RAZAKOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Boyovut tuman sudi raisi

KORRUPSIYA JAMIYATIMIZ VA TARAQQIYOTIMIZ KUSHANDASI

Dolzarb mavzu

Korrupsiya – jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslarini chirittiruvchi, taraqqiyotning orqaga tortilishiga sabab bo‘ladigan eng xavfli illatdir. U davlat xizmatchilarining o‘z mansab mavqeidan shaxsiy manfaat yo‘lida noqonuniy foydalanishini anglatadi, adolat tamoyillarini buzadi, iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiladi va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi.

Korrupsiya (lotincha corruptio – chirish, aynish) jamiyat va davlat qurilishining barcha sohalariga tahdid soluvchi taraqqiyot kushandasi hisoblanadi. Bu illat nafaqat davlat mablag‘larining noqonuniy o‘zlashtirilishiga olib keladi, balki xalqning haqqi bo‘lgan ta’lim, sog‘liqni saqlash va infratuzilma rivojlanishiga ham to‘sqinlik qiladi.

Jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishda ijobiy natijalarga erishishimiz mumkin. Korrupsiya bu shunchaki jinoyat yoki huquqbuzarlik emas, balki ma’naviy buzilish holati hamdir. U fuqaroning davlat vakili bilan ma’muriy munosabatlarining mazmun-mohiyatini o‘zgartirib, jamiyat va davlat uchun salbiy oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning birgalikdagi sa’y-harakatlari bilangina ushbu umuminsoniy illatga qarshi kurashda kutilgan natijaga erishishimiz mumkin.



Xulosa qilib aytganda, korrupsiya – rivojlanishimizga g‘ov bo‘layotgan eng katta tahdiddir. Unga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki butun jamiyat va har bir fuqaroning burchi hisoblanadi.

Sarvar ERGASHXO‘JAYEV,
Bekobod tumani IIB boshlig‘i,
polkovnik

Bilarmidingiz?!

KO‘CHMAS MULK BOJI



Mulkdorning xotiniga (yoki eriga), shuningdek uning va xotinining (erining) ota-onalariga, bolalariga va ularning eriga yoki xotiniga, nabiralariga, buvilariga, buvalariga, aka-ukalari va opa-singillariga ko‘chmas mol-mulkni o‘tkazish bilan bog‘liq shartnomalar rasmiylashtirilayotganda, davlat boji belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida undiriladi.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida yangi qurilgan ko‘chmas mol-mulkning oldi-sotdi shartnomalarini tasdiqlash jarayonida, Toshkent shahri va viloyatga boshqa davlatlardan kelgan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo‘lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan sotib olingan yangi qurilgan ko‘chmas mol-mulk uchun — belgilangan BHMning 3300 baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda va shartnoma summasining 10 foizi miqdorida davlat boji undiriladi.

Bekzod TO‘RAYEV,
Bekobod tumani
Adliya bo‘limi
Inson huquqlarini
himoya qilish va
huquqni qo‘llash amaliyotini
o‘rganish bo‘yicha
bosh maslahatchi

Xabardormisiz?!

1-APRELDAN NIMALAR O‘ZGARADI?

2026-yil 1-apreldan bir qator muhim qonunchilik o‘zgarishlari joriy etiladi. Ushbu yangiliklar aholining turmushini qulaylashtirish, moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirish va yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan.

Ipak qurti parvarishlashga foizsiz ssuda. Qonunchilikka ko‘ra, ipak qurtini parvarishlash bilan shug‘ullanuvchi kasanachilarga zarur asbob-uskuna va jihozlarni xarid qilish uchun 3 yil muddatga foizsiz ssuda ajratiladi. Ssuda miqdori BHMning 50 baravarigacha bo‘lishi mumkin. Ushbu chora tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash va sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘lovlar faqat elektron tizimlar orqali amalga oshiriladi. Qonunchilikka ko‘ra, ba’zi to‘lovlar endi faqat bank kartalari yoki elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar, elektr energiyasi, tabiiy gaz va ichimlik suvidan foydalanganlik uchun to‘lovlar, alkogol va tamaki mahsulotlarini xarid qilish operatsiyalari endi elektron tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, transportlarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari orqali aholiga neft-gaz mahsulotlarini sotish va elektrda harakatlanadigan transportlarni zaryadlash bo‘yicha xizmatlar, qiymati 25 million so‘mdan oshadigan tovar va xizmatlar, ko‘chmas mulk obyektlari, ishlab chiqarilganiga 10 yildan oshmagan M, N, O va G toifaga kiruvchi transport vositalari hamda maxsus avtotransport vositalarini sotish va sotib olish endilikda faqat elektron to‘lovlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu chora moliyaviy operatsiyalarni shaffoflashtirish va noqonuniy to‘lovlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Yo‘l harakati qoidabuzarliklari va jarima ballari. 1-apreldan maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish tizimlari orqali qayd etilgan yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun ham jarima ballari hisoblanadi. Shu bilan birga, jarima ballari transport vositasining mulkdori va ushbu transport vositasidan fuqarolik-huquqiy munosabatlar asosida (ishonchnoma, sug‘urta polisi, yo‘l varaqasi) foydalanuvchi boshqa haydovchilarga taqsimlanadi. Bu chora yo‘l harakati xavfsizligini oshirish, haydovchilarni javobgarlikka tortish va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi yangiliklar aholining kundalik hayotida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi va moliyaviy, ijtimoiy hamda transport sohalarida tartib-intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, 2026-yil 1-apreldan kuchga kiradigan o‘zgarishlar bilan tanishib chiqish tavsiya etiladi.

Farida MAMAJANOVA tayyorladi.

Huquqiy islohotlar

ERTA NIKOH VA OILAVIY ZO‘RAVONLIKKA QARSHI CHORALAR

So‘nggi yillarda oilaviy zo‘ravonlik, voyaga yetmagan bolalarga nisbatan noqonuniy harakatlar, erta nikohlar va ajrimlar sonining ortishi jamiyatimizda dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday holatlar oilaning barqarorligini zaiflashtiradi, yoshlarning ta’lim olish imkoniyatlarini cheklaydi, ularning psixologik rivojlanishiga putur yetkazadi va shaxs sifatida shakllanish jarayonini murakkablashtiradi. Masalan, ba’zi hududlarda 15–16 yoshli qizlarning majburan turmushga berilishi ularning maktabni tark etishiga va kelajakda mustaqil hayot qurish imkoniyatining yo‘qolishiga olib kelmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish, yoshlarni himoya qilish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida bir qator davlat organlari, mahalliy hokimliklar, ijtimoiy xizmatlar va jamoat tashkilotlari tomonidan amaliy takliflar ishlab chiqildi. Shu asosda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 3-martda 33-sonli farmonni qabul qildi. “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida” farmoni mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan muhim huquqiy hujjatdir.

Farmonning 6–11-bandlari erta nikoh va voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha yangi mexanizmlarni belgilaydi. Bu normalar nafaqat javobgarlikni kuchaytiradi, balki bunday holatlarni erta aniqlash, oldini olish va jabrlangan voyaga yetmaganlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Avvalo, farmon asosida voyaga yetmagan shaxslar bilan nikoh tuzishga chaqirish yoki buni targ‘ib qilish ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Bu jamiyatda “erta turmushga undash” kabi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, ba’zi hududlarda qizlarni maktabni tugatmasdan turmushga berishga chaqirish odatiy hol sifatida kuzatiladi, endilikda bunday harakatlar huquqbuzarlik sifatida baholanadi.

Farmonning yana bir muhim jihati – jamoatchilikni bunday holatlar haqida xabar berishga rag‘batlantirish tizimi joriy etilishidir. 2026-yil 1-sentyabrdan boshlab nikoh yoshi yoki nikoh tuzish tartibini buzganlik uchun undirilgan jarimaning 15 foizi xabar bergan shaxslarga rag‘bat sifatida beriladi. Masalan, qo‘shni yoki qarindoshlar orasida 16–17 yoshli qizni majburan turmushga berish holati aniqlansa, bu haqda xabar bergan shaxs rag‘batlantiriladi. Natijada qonunbuzarliklar yashirin qolish ehtimoli kamayadi.

Farmon bilan erta nikoh va 16 yoshgacha bo‘lgan homiladorlik holatlarini aniqlash va tezkor choralar ko‘rish bo‘yicha idoralararo hamkorlik tizimi ham yaratilmoqda. Endilikda mahalla fuqarolar yig‘ini, FHDY organlari, maktab va tibbiyot muassasalari hamda diniy tashkilot vakillari bunday holatlar haqida ichki ishlar organlari va “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlariga majburiy ravishda xabar berishi kerak. Agar ular buni yashirsa yoki xabar bermasa, ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Masalan, maktab o‘qituvchisi o‘quvchi qizning turmushga berilayotganini yoki poliklinika shifokori 15 yoshli qizning homiladorligini aniqlasa, bu haqda tegishli organlarga xabar berishi shart. Bu orqali voyaga yetmagan shaxsning huquqlari himoya qilinadi va unga zarur ijtimoiy yordam ko‘rsatiladi.

Farmonda og‘ir jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirish ham belgilangan. Masalan, ilgari voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyat sodir etgan shaxslar (pedofillar) yana shunday jinoyat sodir etsa, ularga umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatli qamoq jazosi tayinlanadi. Shuningdek, bir guruh shaxslar tomonidan voyaga yetmaganlarga uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish holatlariga ham og‘irroq javobgarlik belgilanishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, erta nikoh va oilaviy zo‘ravonlik holatlarining oldini olish jamiyat barqarorligi va sog‘lom kelajakni ta’minlashning muhim shartidir. Shu maqsadda ushbu farmon erta nikoh, voyaga yetmaganlar huquqlarining buzilishi hamda ayollar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashishda yangi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni joriy etadi.

Mazkur hujjat bunday holatlarni erta aniqlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, idoralararo hamkorlikni rivojlantirish, jabrlanuvchilarga tezkor yordam ko‘rsatish va jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan kompleks choralarni belgilaydi. Natijada ayollar va bolalarning huquqiy himoyasi mustahkamlanadi, oilaviy qadriyatlar asraladi va yoshlar xavfsiz muhitda voyaga yetadi.

Charosxon NEMATOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti
3-bosqich talabasi

Giyohvandlikka qarshi kurash

NARKOTIKLAR – JAMIYATNI YEMIRAYOTGAN ILLAT



Insoniyat taraqqiyoti davomida ko‘plab muammolarga duch kelgan. Ammo shunday illatlar borki, ular nafaqat bir insonni, balki butun jamiyatni ichidan yemiradi. Narkotik moddalar ana shunday xavflardan biri bo‘lib, u sekin, lekin shafqatsizlarcha inson hayotini izdan chiqaradi. Eng achinarlisi, bu illat ko‘proq yoshlar hayotiga tahdid solmoqda.

Dastlab, narkotik moddalardan foydalanish insonni muammolardan qochishga yordam beradigandek tuyuladi. Ammo aslida u insonni asta-sekin o‘ziga qaram qilib qo‘yadi. Bir marta sinab ko‘rish “qiziqish” sifatida boshlansa-da, keyinchalik bu odat kuchli ehtiyojga, so‘ng esa qaramlikka aylanadi. Natijada inson sog‘lig‘ini, oilasini, orzularini va kelajagini yo‘qota boshlaydi.

Tibbiyot nuqtai nazaridan, narkotik moddalar miya faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Ular asab tizimini izdan chiqaradi, fikrlash qobiliyatini susaytiradi va ruhiy kasalliklarni keltirib chiqaradi. Jismoniy jihatdan esa yurak, jigar, o‘pka kabi muhim organlar faoliyati buziladi. Ko‘p hollarda bu jarayon o‘lim bilan yakunlanadi.

Narkotik moddalarga qaram bo‘lgan inson o‘z atrofidagilarga ham zarar yetkazadi. Oilalarda nizolar kuchayadi, jinoyatchilik darajasi ortadi, jamiyatda beqarorlik yuzaga keladi. Ayniqsa, yoshlarning bu yo‘lga kirib ketishi millat kelajagi uchun jiddiy xavfdir.

Narkotiklarga qarshi kurash – bu faqat jazolash bilan hal etiladigan masala emas. Eng avvalo, profilaktika, ya’ni oldini olish muhim. Yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va ilm-fanga jalb qilish zarur. Oila esa bu borada eng muhim tayanchdir. Mehr, e’tibor va nazorat yetishmagan joyda xavf kuchayadi.

Ta’lim muassasalari ham bu kurashning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Maktab va oliy o‘quv yurtlarida narkotiklarning zararli oqibatlari haqida ochiq va ta’sirli targ‘ibot ishlari olib borilishi kerak. O‘quvchilar faqat nazariy emas, balki hayotiy misollar orqali bu illatning asl qiyofasini anglab yetishlari lozim.

Shuningdek, davlat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan olib borilayotgan qat’iy choralar ham muhim ahamiyatga ega. Narkotik moddalarni ishlab chiqarish, saqlash va tarqatishga qarshi keskin kurash jamiyatni bu illatdan himoya qiladi. O‘zbekistonda giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha 4 yillik milliy strategiya qabul qilindi. Bunda ichki ishlar organlarini narkotesterlar bilan ta’minlash, jinoyatlarni aniqlashda dronlardan foydalanish, mutaxassislar tayyorlash hajmini 5 baravarga oshirish kabi chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan hamkorlikda bojxona organlari tomonidan transmilliy narkoguruhlarning qonunga zid faoliyati aniqlanib, kontrabanda kanallari yopilmoqda, giyohvand o‘simliklar maydonlari yo‘q qilinmoqda va narkotik moddalar tarqalishining oldini olish bo‘yicha kompleks operatsiyalar muntazam amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, narkotiklar – insonning eng katta dushmanlaridan biridir. U bilan kurashish har birimizning burchimizdir. Agar biz yoshlarimizni bu illatdan asray olsak, demak, kelajagimizni saqlab qolgan bo‘lamiz. Har bir inson o‘z hayoti uchun mas’ul ekanini anglab, to‘g‘ri yo‘lni tanlashi kerak. Shu sababli, jamiyatimizda yoshlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar aylanmasiga chek qo‘yish, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish barchamizning vazifamizdir.

Yulduzxon BAXRONOVA
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
“Prokurorlik faoliyati” yo‘nalishi
3-bosqich talabasi


PEDAGOGIK FAOLIYATDAGI STRESS VA UNI YENGISH YO‘LLARI

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilik kasbi faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki yuqori darajadagi mas’uliyat, sabr-toqat va ruhiy barqarorlikni talab qiladi. Har kuni turli xarakterdagi o‘quvchilar bilan ishlash, ota-onalar bilan muloqot qilish, hujjatlar yuritish va natija uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish o‘qituvchida psixologik stressni yuzaga keltiradi. Shu sababli pedagoglarning ruhiy salomatligini o‘rganish, stress manbalarini aniqlash va ularni kamaytirish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Psixologik stress — bu insonning tashqi yoki ichki bosimlarga nisbatan javob reaksiyasidir. O‘qituvchilarda stressing manbalari juda ko‘p va xilma-xildir. Avvalo, ish yuklamasining ortiqligi pedagoglar faoliyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Darsga tayyorgarlik ko‘rish, o‘quv rejalari tuzish, daftar va ish jurnallarini tekshirish, hisobotlar tayyorlash kabi vazifalar ko‘pincha ish vaqtidan tashqariga chiqib ketadi. Natijada dam olish va shaxsiy hayoti uchun vaqtning qisqarishi, charchoqning ortishi va ruhiy bosimning kuchayishi kuzatiladi.

Shuningdek, sinfdagi intizom muammolari ham o‘qituvchilarda stressni oshiradi. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish va ularga moslashish katta sabr va psixologik kuch talab qiladi. Ba’zi o‘quvchilarning darsga qiziqmasligi, tartibga bo‘ysunmasligi yoki noto‘g‘ri xulq-atvori o‘qituvchida asabiylik, tushkunlik va ruhiy charchoqni keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalar bilan yuzaga keladigan kelishmovchiliklar, muammolar, turli talablar pedagog uchun qo‘shimcha bosim ni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, baholash tizimi va natija uchun mas’uliyat pedagoglarning doimiy stress manbai hisoblanadi. Tekshiruvlar, attestatsiyalar, hisobot va nazorat davrlarida o‘qituvchi o‘zini doimiy nazorat ostida his qiladi. Bu holat uning psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir qiladi va stress darajasini yanada kuchaytiradi.



Mutaxassis tavsiyasi

Doimiy stress nafaqat ish jarayoniga, balki o‘qituvchining sog‘lig‘iga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. U uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, tez charchash, ruhiy tushkunlik, hissiy beqarorlikni yuzaga keltiradi. Uzoq muddat davom etgan stress esa “emotsional kuyinish” holatini keltirib chiqaradi. Bu holatda o‘qituvchi ishga nisbatan befarq bo‘lib qoladi, motivatsiyasi pasayadi, o‘zini doimiy charchagan his qiladi va kasbiy qoniqishi kamayadi.

Stressni kamaytirish uchun bir nechta samarali usullar mavjud. Ular nafas mashqlari, meditatsiya va jismoniy faollikdir. O‘qituvchilar uchun maxsus seminarlar, treninglar va psixologik yordam xizmatlarini tashkil etish ham muhimdir. Kasbiy qo‘llab-quvvatlash — hamkasblar bilan tajriba almashish hamda muammolarni birgalikda muhokama qilish pedagogga yengillik beradi. Rahbariyat tomonidan yaratilgan ijobiy ish muhiti, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish pedagogning motivatsiyasini oshiradi, ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining ruhiy salomatligi ta’lim sifatining muhim omillaridan biridir. Shu sababli pedagoglarning psixologik holatiga e’tibor qaratish, ularni qo‘llab-quvvatlash va stressni kamaytirish choralarini ko‘rish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Sohiba QODIROVA,
Bekobod tumani
60-umumta’lim maktabi
amaliyotchi psixologi

Sport musobaqasi

OLIMPIYA CHO‘QQILARI – BEKOBODDA



Bekobod tumanining sportchi yoshlari hayotida muhim voqea bo‘lib o‘tdi – “Prezident Olimpiadasi – Yangi O‘zbekiston Olimpiya cho‘qqilari” sport musobaqasining Taekvon-do WT yo‘nalishi bo‘yicha tuman bosqichi yuqori saviyada tashkil etildi.

Musobaqada tumanning turli hududlaridan 120 nafardan ortiq iqtidorli sportchilar ishtirok etib, o‘z mahorat va tayyorgarlik darajalarini namoyon etdilar. Bellashuvlar keskin va murosasiz ruhda kechdi. Har bir ishtirokchi g‘alaba uchun bor kuch-g‘ayratini ishga soldi.

Ushbu musobaqaning asosiy maqsadi – yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularni sportga keng jalb etish, shuningdek, iste’dodli sportchilarni aniqlab, yuqori bosqichlarga saralashdir.

Taekvon-do WT yo‘nalishida o‘tkazilgan bellashuvlar sportchilarning texnik mahorati, tezkorligi va irodasini sinovdan o‘tkazdi. Natijada g‘olib bo‘lganlar viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritib, diplom, medal va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Musobaqa nafaqat sportchilarning shaxsiy mahoratini oshirishga, balki yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jahongir SULTONOV,
Bekobod tumani Sport maktabi
yo‘riqchi-uslubchisi

Bayram shukuhi



YANGI O‘ZBEKISTONNING – VATANPARVAR YOSHLARI

Bekobod tumani 48-umumta’lim maktabida Navro‘z umumxalq bayrami munosabati bilan “Yangi O‘zbekistonning – Vatanparvar yoshlari” shiori ostida ko‘rik-tanlov tashkil etildi. Unda o‘qituvchilar, o‘quvchilar, shuningdek, viloyat va tuman miqyosidagi turli tashkilot vakillari ishtirok etdi.

Mazkur tanlovda O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi Guliston Harbiy Prokurori F.Djumayev boshchiligida Toshkent okrugi harbiy orkestr jamoasi, Shirin shahar harbiy qismi, Bekobod tumani MIB xodimlari, Bekobod tumani FVV xodimlari, Hududiy ChQBT rahbari va xizmat ko‘rsatgan san’atkorlar ham qatnashdilar. Ularning ishtiroki ko‘rik-tanlovga yanada rasmiylik va tantanavorlik bag‘ishladi.

Ko‘rik-tanlov 48-umumta’lim maktabining vatan tayanchi otryadi va o‘quvchilarning faol ishtirokida o‘tkazildi. Yoshlar vatanparvarlik ruhida turli chiqishlar namoyish etib, o‘zlarining mahorat va iste’dodlarini ko‘rsatdilar. Ular orasida she’riy va musiqiy ijrolar, shuningdek, harbiy-vatanparvarlik yo‘nalishidagi namoyishlar alohida e’tiborni tortdi.

Tanlov davomida mehmonlar ishtirokchilarning vatanparvarlik ruhini, jamoaviy ishlash va irodali bo‘lish qobiliyatlarini kuzatdilar. Shuningdek, yoshlarga samimiy maslahatlar berib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatladilar.

Bunday ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishidan asosiy maqsad – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy faoliyatga keng jalb qilish, shuningdek, iste’dodli va faol yoshlarni aniqlashdan iboratdir. Tanlovning Navro‘z bayrami bilan birga o‘tkazilganligi, uni nafaqat ma’naviyatga, balki bayramona kayfiyatga ham boy qildi.

Iqboloy ERTABOYEVA,
Bekobod tumani
48-umumta’lim maktabi
ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha
direktor o‘rinbosari

UCH AVLOD UCHRASHUVI

MEHR VA AN’ANALAR DAVOMIYLIGI

Yurtimizda oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, avlodlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday ezgu an’analardan biri sifatida har yili “O‘zbekiston” MFY hududida joylashgan Sulaymonqul bobo xonadonida o‘tkazib kelinayotgan oilaviy uchrashuv alohida e’tiborga loyiq.



Ushbu xonadon sohibi Sulaymonqul bobo uzoq yillar davomida maktabda matematika fanidan dars berib, ko‘plab shogirdlarga ilm ulashgan ziyoli inson sifatida hurmat qozongan. Ularning umr yo‘ldoshi Hikoyat buvi esa butun umrini farzandlar tarbiyasi va xonadon barakasi yo‘lida bag‘ishlagan mehribon ona sifatida e’zozlanadi.

Bugungi kunda bu oilada 10 nafar farzand, 30 dan ortiq nevaralar voyaga yetgan. Shuningdek, keyingi avlod vakillari, kelinlar va kuyovlar safi ham yildan yilga kengayib bormoqda. Eng e’tiborlisi, oila a’zolarining deyarli barchasi oliy ma’lumotli bo‘lib, ular turli sohalarda samarali faoliyat yuritmoqda. Bu esa ota-onaning bergan tarbiyasi va ilmga bo‘lgan yuksak e’tiborining yaqqol natijasidir. Quvonarlisi shundaki, oilaning yosh vakillari ham ilm yo‘lida katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Har yili turli fanlar bo‘yicha milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritib, yuqori natijalarni qayd etishmoqda. Bu shundan dalolatki, ushbu xonadonda ilm-fan va taraqqiyotga bo‘lgan intilish izchil davom etmoqda. Mazkur oila qishloqdagi namunali xonadonlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

An’anaga ko‘ra, joriy yilda ham “Uch avlod uchrashuvi” nomi ostida oilaviy tadbir tashkil etildi. Uchrashuv, avvalo, o‘tganlarni yod etish bilan boshlandi. So‘ngra bayramona kayfiyat hukm surib, kuy-qo‘shiqlar, raqslar va samimiy suhbatlar bilan davom etdi. E’tiborlisi shundaki, ushbu kunda Sulaymonqul boboning barcha farzandlari, nevaralari, evaralari, kelin va kuyovlari jam bo‘lib, uch avlod vakillari bir davrada uchrashdi. Turli qiziqarli shartlar va o‘yinlar tashkil etilib, ishtirokchilar o‘rtasidagi mehr-oqibat yanada mustahkamlandi. Tadbirning eng ta’sirli jihatlaridan biri sifatida har yilgi an’anaga ko‘ra xonadon egalarining ibratli o‘gitlari xotirlandi, bolalikdagi shirin xotiralar esga olinib, davrada samimiy va iliq muhit yanada mustahkamlandi.

Bunday uchrashuvlar nafaqat oila a’zolarini bir davrada jamlaydi, balki avlodlar o‘rtasidagi mehr, hurmat va birdamlikni yanada mustahkamlaydi. Eng muhimi, bu kabi an’analar yosh avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Bugun Sulaymonqul bobo xonadonida shakllangan bu qadriyatlar — ilmga intilish, o‘zaro hurmat va birlik ruhi — ertangi kun uchun mustahkam poydevor bo‘lib qolmoqda. Shubhasiz, ana shunday oilalar bor ekan, jamiyatimizda barqarorlik va taraqqiyot davom etaveradi.

Lobar JUMABOYEVA

TUMAN IJODKORLARI IJODIDAN



EZGULIK BOG‘IN BOG‘BONI

Imom Al-Buxoriy majmuasining yangi qiyofa kasb etishi munosabati bilan.

Bugun yurtning O‘zbekiston nomi yangi,
Har bir kuni, har soati, oni yangi,
Chiroy ochar manzillari, tongi yangi,
Fuqarosin tafakkuri, ongi yangi.

Yangilanish kirib keldi Xartanga ham,
Qutlug‘ maskan kasb ayladi yangi hasham,
Bunda hadis hikmatlari etilgan jam,
Undan ibrat olsa arzir butun olam.

Ulug‘ zotning xoki qo‘nim topgan dargoh,
O‘ylamangki, faqatgina ziyoratgoh.
Unda jamdir zamonaviy usturlobda
Ham sunnati, ham siyrati Rasulullоh.

Yangilangan mahobatni kuzatib jim,
Ajdodlarga g‘oyibona qilib ta’zim,
Hadis ilmin sultonining hayot yo‘lin
Sizga bayon aylamoqqa etdim jazm:

Go‘daklikda otasidan mahrum bo‘lgan,
Uch yoshida ko‘zi ojiz bo‘lib qolgan,
Olti yoshda u Qur’onni yoddan bilgan,
Alloh rahmat nazarini solgan bobom.

Volidasin duolari dalda bo‘ldi,
Tangri bergan mo‘jizadan ko‘z ochildi,
Bolalikdan ilm yo‘lin sobit bildi,
Rabbisiga dildan ixlos qo‘ygan bobom.

Alloh berdi unga yodlash ilhomini,
O‘n yoshidan yod olardi hadis ilmin,
Shu yoshda u bilar edi yetmish mingin,
Ey, quvvayi hofizasi teran bobom.

Ilm istab, hadis izlab kezdi jahon,
Avval Makka, so‘ng Madina, Iroq-u Shom,
Hijoz eli, Misr, Nishopur va Xuroson,
Maqsadlari tog‘dan yuksak bo‘lgan bobom.

Olti yuz ming hadisni u yozib oldi,
Uch yuz mingta hadisni u yoddan bildi,
Hadislardan yuz mingtasi sahih dedi,
“Al-Jomi’ as-Sahih”ni tuzgan bobom.

Tasnif etib Rasulullоh siyratlarin,
Ahloqlari, yumushlari – sunnatlarin,
O‘z o‘rniga qo‘yib matn-u sanadlarin,
Muxtasar bir asar – kitob qilgan bobom.

Ushbu kitob Qur’ondan so‘ng turgani chun,
Bani odam undan ibrat olgani chun,
Keng olamni to‘g‘ri yo‘lga solgani chun
Imon ahlin ehtiromin olgan bobom.

Vaqti kelib erk shamoli esdi elda,
Bobom ilmi o‘rin oldi har bir dilda,
Sa’y boshlandi bobom yotgan shul manzilda,
Yurtga qaytib, ruhi shodon bo‘lgan bobom.

Bobom – faxrim, hadis ilmin sultonidir,
Butun dunyo imomlarin imomidir,
Ezgulikdan bog‘ yaratgan bog‘bonidir,
O‘sha bog‘i menga ilhom bergan bobom.

Karimqul MAVLONOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

SHARQ SAYQALI

O‘zbekiston Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishi munosabati bilan.

Yurtimning g‘ururi poytaxt – Toshkentim,
Shaharlar ichida sensan, bosh kentim,
Yangi Markazga deb shu she’rni bitdim,
Hamisha navqiron, hamon yosh kentim!
Muhtasham bu bino samoni quchgan,
Ko‘rib kishilarning hayrati oshgan,
Hamma ko‘ray deya Toshkentga shoshgan,
Hamisha navqiron, hamon yosh kentim!
Ko‘rkam xiyobonlar, bog‘laring kezdim,
Sen sharqning mash’ali, qudrating sezdim,
Dildan chiqar kalom, shu mening nazdim,
Hamisha navqiron, hamon yosh kentim!
Shayxontohur, Ko‘kcha, Beshyog‘och, Sebzor...
Har bir mahallangda o‘zgacha zeb bor,
Gapning indallosi: maqtovim bisyor,
Yurtimning g‘ururi, poytaxt – Toshkentim!
Shaharlar ichida sensan bosh kentim,
Hamisha navqiron, hamon yosh kentim!!!

Said BOLTABOYEV,
Nayman mahallasi, faxriy pedagog

MUHABBAT

Ishqqa bo‘ldim men mubtalo,
Qoldim hijron, tug‘yon aro.
Sen shu dardga bo‘lib davo,
Qalbimga o‘t sol muhabbat,
Sen yonimda qol muhabbat.

Kuydirsa ishq degan olov,
Yoqaverar unga qalov.
Oshiq qalbim yonsa lov-lov,
Yurak dardim ol muhabbat,
Sen yonimda qol muhabbat.

Bo‘lib qolsam bir notavon,
Eta olmay ishqim bayon.
Sevgim chindir menga ishon!
Qaddim etma dol muhabbat,
Sen yonimda qol muhabbat.

Bayon ayla qalbing sirin,
Unda ne sirlar yashirin.
Oh, hijroning buncha shirin,
Etgin meni lol muhabbat,
Sen yonimda qol muhabbat.

Sog‘inchimni ichga yutib,
Kelsang olay seni kutib.
Dasta-dasta gullar tutib,
So‘ra mendan hol muhabbat,
Sen yonimda qol muhabbat.

Kel, qalbimga solma armon,
Muhabbatim etma sarson.
O‘zingsiz qoldirma bir on,
Ozori ham bol muhabbat,
Sen yonimda qol muhabbat.

Muyassar ARZIMATOVA

ONAM

Tun bo‘ylari shunchalar uzun,
Zulmat buncha libosing qora.
Tong nasimi behis va beun
Sukunat ham qilar tantana.

Hayot asli bir nafaslik yo‘l,
Do‘zax o‘ti jismimga tutash.
To‘shagim tosh, yostiqlarim ho‘l,
Bo‘g‘zim kuyar, ruhim jon talash.

Meni dardlar yengmasdan avval,
Ona meni quchog‘ingga bos.
Umrim yo‘li asli tavakkal,
Sitamlardan meni qil xalos.

Duoingiz asraydi meni,
Borligingiz beradi huzur.
Baxt qo‘llari o‘raydi meni,
Shu kunlarni berganga shukur.

Qarshingizda bosh egar olam,
Xizmatingiz doim beminnat.
Ko‘zlarimda bo‘lmas also nam,
Ona sizni poyingiz Jannat.

Esonali YODGOROV

O‘ZBEK QIZI

Diyora Keldiyorovaga bag‘ishlanadi.

Kurashni chiqargan asli o‘zbekka,
Maydon to‘lib bo‘ldi o‘ziga bekka.
O‘zbek bayrog‘ini olib dunyoga
Dzyudo tanitdi bizning Diyora.

Yengilmas Abini oldiroldi tan
Avval bunaqasi hecham bo‘lmagan.
Yana bir dovondan oshdi, Diyora
Sevinchdan ko‘zyoshi toshdi, Diyora.

Alplar yurti mening O‘zbekistonim,
Ko‘rkiga yarashgan bog‘-u bo‘stonim.
Sportchi qizining yutug‘in ko‘rib,
Xalqini e’zozlar shodlikka ko‘mib.

Kurashib tanildi o‘zbekning qizi,
Hayotda abadiy qolgaydir izi.
Sizlarga maqtandim men ham dil yora,
O‘zbekning mard qizi jasur Diyora.

Mirzaqul BERDIQULOV,
“Oqtepa” MFY nuroniysi

NAVOIY BOBOM

Asrlar qa’rida qolgan jismingiz,
Ezgulik ishidir o‘y-u fikringiz,
Tabarruk joylarga meros ismingiz –
Dilda aks-sadodir, Navoiy bobom.

Alloh zikri ila Qalam qo‘lida,
Yaxshilik ulashgan yurgan yo‘lida,
Ilm-u urfon tug‘i o‘ng-u so‘lida –
Ko‘ngilga ma’vodir, Navoiy bobom.

Besh doston bitgansiz ona tilimda,
She’riy o‘gitingiz doim dilimda.
Bugun ham Xamsangiz jahon qo‘lida,
Ming dardga davodir, Navoiy bobom.

Guvoh bo‘ldi tabiat, guvoh asrlar,
Goh yashnab, goh vayron bo‘ldi qasrlar,
Hali ham ochilmas sinoat, sirlar –
Siz buyuk dahosiz, Navoiy bobom.

Mavludaxon TULAYAROVA,
Bunyodkor mahallasi otinoyisi

BEKOBODIM QIZIMAN

Yuragida o‘ti bor To‘marisning qiziman,
Aytgan so‘zidan qaytmas Temurbekning qiziman,
Shoiralar qavmidan Uvaysiyning qiziman,
Asli beklar naslidan Bekobodim qiziman.

Beklar yurti qizlari begoyim-u guloyim
Qahri qattiq va lekin ko‘ngli gulday muloyim.
Ularga saodatni o‘zi bergan Xudoyim,
Yo‘lida baxt gul sochgan Bekobodim qiziman.

Bizning shirin tabassum baxtimizdan nishona,
Yursalar har qadamda bek yigitlar parvona,
Bizga berdi imkonni bugun go‘zal zamona,
Zamonaga munosib Bekobodim qiziman.

Bekobodim qizlari oy, yulduz bo‘lib to‘lgay,
Vaqt keladi olima, yurtiga tayanch bo‘lgay,
Yaxshi-yomon kunlarda yelkadosh, suyanch bo‘lgay,
Men shundayin mardona Bekobodim qiziman.

Mohichehra TOSHPO‘LATOVA

Sahifani Mirzabek SHERBEKOV tayyorladi.

URUSHNING SO‘NGGI QURBONI



Hikoya

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo bu to‘g‘rida hech kim o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Bo‘z ko‘rpa ustidan yopilgan, shinni dog‘i tekkan quroq dasturxon ham, hozirgina go‘jadan bo‘shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog‘och qoshiq ham uning ko‘ziga xunuk ko‘rinib ketdi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Ayvon to‘sinidagi uzun mixga ilig‘liq lampochka xira nur taratadi. Chiroq atrofida o‘ralashgan chivinlar bir zum tinmaydi. Hovlining yarmigacha ariq tortib ekilgan qulupnay pushtalari orasida suv yaltiraydi. Onda-sonda rang olgan qulupnaylar ko‘zga tashlanib qoladi. Qayoqdandir shamol keldi. Hovli etagidagi yong‘oq shoxlari bir guvullab qo‘ydi. Shoikrom uyqu elta boshlagan ko‘zlari bilan o‘sha tomonga bir qarab qo‘ydi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana o‘sha tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi. “Ziqna bo‘lmay o‘l! – deb o‘yladi xotinini so‘kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi”.

Ichkarida chaqaloq yig‘ladi. Beshikning g‘ichirlagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big‘illay boshladi. Kattasi ham uyg‘onib ketdi shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi.

Shoikrom siltanib qaddini rostladi.

– Ovozini o‘chir, Xadicha!

Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi.

– Ovozi o‘chsa koshkiydi! To‘qqiz kechasida jin tekkan bunga!

“Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, – deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. – Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi”.

Uni urushga olishmadi. To‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi yo o‘zi yaxshi ishlarmidi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urushning boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urush bo‘ldi-yu, zamona o‘zgarib ketdi. Bir xil odamlar tirnoqqa zor. Uning xotini bo‘lsa, yonidan o‘tib ketsa ham boshqorong‘i bo‘laveradi. Xudo bergandan keyin tashlab bo‘larmishmi, deb ketma-ket uchta qiz tug‘ib berdi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, erta-indin Gitlerning to‘ng‘iz qo‘pishi ko‘rinib qolgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shninikida aza ochiladi, hali bu qo‘shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g‘iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko‘zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko‘rdi. U uylangandan keyin otadan qolgan hovlini o‘rtadan ikki paxsa devor olib bo‘lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo‘lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqavergandan keyin Umri xola ro‘zg‘oring boshqa bo‘lsa, o‘zingga qayishasan deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O‘zi kichik o‘g‘li Shone’mat bilan narigi hovlida qoldi.

Rangi uniqqan chit ko‘ylak ustidan nimcha kiyib olgan Umri xola sharpaday unsiz yurib keldi-da, yapaloq musulmon g‘ishtdan yasalgan zinadan ayvonga ko‘tarildi.

– Hali uxlamovmiding? – dedi u zinadan enkayib chiqayotganida surilib ketgan ro‘molini qayta o‘rab.

– Ko‘rmaysizmi, chaqaloq tinchitmayapti. O‘zim itday charchaganman.

– Bola bo‘lgandan keyin yig‘laydi-da, – dedi Umri xola yupatuvchi tovushda. – Yotaver, bolam. –U yana o‘sha unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi.

Qaynona-kelin bir balo qilib, bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib dasturxon ustiga qo‘ydi.

– Choy o‘lib qopti, – dedi u zog‘ora ushatarkan.

Umri xola Shoikromning yonboshiga, shaparak ko‘rpachaga o‘tirdi.

– Ol o‘zing ham, – dedi u tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi, eslay olmadi.

– Ovqatingdan qoldimi? – dedi u cho‘kkalab o‘tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so‘radi.

– Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg‘on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyotgandir…

– Yo‘q, bolam, ovqat kerakmas, – dedi Umri xola shoshilib. – Xayol surib yotib uyqum o‘chib ketdi... – U bir lahza jim qoldi-da, o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘ydi – Payshanba kuni Komil tabibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi dedi.

– Hozir qo‘y suti qatta, – dedi Xadicha. – Sigir suti otliqqa yo‘g‘-u... Shu paytda sigirimiz tug‘gan bo‘lardi-ya.

Shoikrom xotinining gapini eshitmadi. Birdan uning ko‘z o‘ngida deraza ostida pastak shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o‘n kundan buyon holini so‘ramaganiga afsuslanib, ichidan xo‘rsiniq keldi. Shone’mat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmagandan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi. Shoikrom o‘n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib, ukasidan hol so‘ragan edi. O‘shanda Shone’matning qoq suyak bo‘lib qolganini, katta-katta ko‘zlari nimagadir chuqur ma’no bilan o‘ziga tikilganini ko‘rgan edi.

“Yaqinda o‘ladi, – deb o‘yladi u onasining ko‘ziga qaramaslikka harakat qilib, – baribir, o‘ladi”.

– Tuzukmi? – dedi u hammasi uchun o‘zi aybdorday qovog‘ini solib.

– Shukur, – Umri xola qult etib yutindi. – Hozir uxladi. – Onasi shu topda chiqib ovora bo‘lmagin, degan ma’noda gapirganini Shoikrom tushundi.

– Ertalab xabar olaman, – dedi u onasi o‘rnidan turganda.

– Sendan nega gina qilarkan, bolam, – dedi Umri xola ayvon labida to‘xtab. – Ko‘rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo‘lib ketadi, bolam. – Zinaga yechgan kalishining bir poyi to‘nkarilib qolgan ekan, Umri xola oyog‘ining uchi bilan to‘g‘rilayman deb ancha ovora bo‘ldi. Keyin zinalardan enkayib tushdi-yu, sharpaday unsiz yurgancha, hovli etagiga qarab ketdi. Pastak eshik g‘iyqillab ochilib yopildi.

– Padariga la’nat shunday turmushning! – dedi Shoikrom bo‘g‘ilib. Keyin dasturxonni yig‘ishtirayotgan xotiniga o‘shqirdi – Seniyam padaringga la’nat! Tumshug‘ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o‘tirsang.

– Nega menga o‘dag‘aylaysiz? – Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig‘lamsiradi. – Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotiniday so‘yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo‘lsangiz. Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o‘girib, tishini g‘ichirlatdi.

Suv qalqisa loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko‘paydi. Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi. O‘sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. Shoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko‘ngli g‘ash tortib uyiga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o‘tirishibdi. Xadicha og‘iroyoq emasmi, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib bilolmay qolibdi. Ertalab tursa, ko‘cha eshigi lang ochiq, yong‘oqqa bog‘log‘liq sigir yo‘q.

“Shu paytgacha sigir tug‘ardi, ukamning og‘ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. – Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim”.

Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, o‘g‘ri – bir. Mana, bundan ikki oycha ilgari Ilhom samovarchining xotinini pichoqlab ketishdi. Bechoraning bitta-yu bitta echkisi bor ekan. Hovliga o‘g‘ri tushganini bilib, xotin sho‘rlik dod solibdi. Eri choyxonada ekan. Yugurib borib echkining arqonidan ushlaganmi, xullas, yetib kelgan qo‘ni-qo‘shnilar qora qonga belanib yotganini ko‘rishibdi.

– Shu kunda yana o‘g‘ri oralab qoldi, – dedi Xadicha ko‘rpani qoqib tancha chetiga solarkan. – Qulupnay qizarmasdan bitta qo‘ymay terib ketishyapti.

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom qovog‘ini uyib. – Bolalar terib yegandir. O‘g‘ri qulupnayga keladimi?

– Og‘ziga bir dona olgan bo‘lsa, buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini obchiqib sotsa, bir kosa jo‘xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o‘pirilib yotibdi?!

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom yana g‘o‘ldirab. Ammo bu safar o‘zining yuragi seskanib ketganini payqadi. Ko‘nglida paydo bo‘lgan g‘ashlikni sezdirmaslik uchun hovliga tushdi. Sekin yurib qulupnay pushtalari oldiga keldi. Ariqlardagi suv chiroq nurida yaltirab, shamolda jimirlar, marjonday terilib rang olgan qulupnaylar suvga tegay-tegay deb turardi.

“Rost-da, – deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, – bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on gapirmaydi. Bolalar yegan bo‘lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo‘latmaydi...”

Bultur xotini shu qulupnay tufayli onasini qattiq ranjitgan edi. Umri xola bir hovuch qulupnay olgan ekan, Xadicha bolalarga non puli bo‘lar deb ekkanmiz, norasidalarning nasibasiga tegmang deb bobillab beribdi.

Shoikrom o‘shanda onasining yoz bo‘yi kelini bilan yuz ko‘rmas bo‘lib yurganini esladi-da, yana shu gap xayoliga keldi. “Xadicha anoyi emas, qurumsoq...”

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham o‘sha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib yuragi orqasiga tortib ketdi. Nazarida devorning kemtik joyidan birov mo‘ralab turganday bo‘ldi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tuprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qaytdi.

Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi. U chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.

Kuzda o‘zi bilan ishlaydigan yigitning hovlisidagi so‘ritokdan g‘arq pishib yotgan uzumlarni o‘g‘irlab ketishganini esladi. Shamol borgan sari avjiga chiqar, hovlida yong‘oq barglari shovullab, shoxlari shubhali g‘ichirlar, allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo‘lardi.

Xadicha rost aytadi. O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Qo‘liga nima ilinsa olaveradi-da. Bordi-yu, o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... “Vijdonsizlar! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak”.

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlar uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasini oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o‘sha xudo bexabarlardan.

U o‘rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitolmas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho‘ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo‘llari bilan qorayib ketgan devordagi mixga ilig‘liq turgan ikki o‘ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash’aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

“Menga desa otib yubormaydimi! – deb o‘yladi u ayvon labiga cho‘qqayib o‘tirgancha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. – Harna bitta haromxo‘rni o‘ldirganim. Bittasi o‘lsa, boshqalari adabini yeydi”.

U chaqqon harakat qilarkan, a’zoyi badani terlab ketgan, ammo buni o‘zi payqamas, faqat bir so‘zni takrorlardi: “Menga desa otib yubormaydimi!”

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon etagidan olib o‘tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo‘ydi. Keyin birdan bolalari kechasi hovliga tushsa nima bo‘ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko‘tardi.

– Ha?

– Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o‘ladi! – dedi Shoikrom ko‘zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, “xo‘p” dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi. Zum o‘tmay tekis, chuqur nafas ola boshladi. Shoikrom ayvon chirog‘ini o‘chirib yana uyga kirdi. Har ehtimolga qarshi shundoq eshik tagiga, namatga ko‘ndalang yotib oldi.

“Menga desa otib tashlamaydimi?” deb o‘yladi yana o‘shanday zarda bilan. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o‘yladi. Shone’mat bolaligida ham zaifgina edi. Shoikrom har kuni uni maktabdan o‘zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o‘tirardi. Otasi o‘lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o‘qirdi. O‘shanda Shone’mat yig‘lamagan, ammo ichikib kasal bo‘lib qolgan edi. Endi bo‘lsa besh kunligi qoldimiyo‘qmi, aka bo‘lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxladimi, yo‘qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig‘ladimi yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog‘iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o‘rnidan turib ketdi. Ayvon chirog‘ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko‘rdi-yu dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. “Boshqalari qochdi” degan fikr lip etib xayolidan o‘tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog‘i botib ketayotganini payqadi. Keyin buklanib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to‘xtadi-yu, birdan cho‘kkalab qoldi. Bir lahza ko‘zlari olayib tikilib turdi-da, ko‘ksidan shamol g‘uvurini ham, o‘z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

– Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o‘zini yerga otdi. Titroq qo‘llari bilan loy changallagancha cho‘kkalab ko‘ksiga mushtlay ketdi.

– Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo‘li bilan uniqqan chit ko‘ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko‘rinib turar, boshqa qo‘li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo‘rtgan tomirlarini aniq ko‘rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida, uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog‘iga tekkanida yulqib olmoqchi bo‘lgan-u, qo‘liga o‘ralashib yiqilgan edi.

Shoikrom loyli marzadan emaklab borgancha, o‘zini onasining quchog‘iga otdi.

– Oyijon, oching ko‘zingizni! – dedi u gezarib ketgan lablari bilan onasining muzday yuzidan o‘pib.

U anchadan keyin o‘ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig‘layotganini payqadi. Boshini ko‘tarishi bilan marza chetida o‘tirgan Shone’matga ko‘zi tushdi. Necha haftalardan buyon o‘rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib, emaklab chiqqan, ko‘ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko‘zlari vahima bilan boqar edi.

– Nima qilib qo‘ydim, ukam! – dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab. Keyin yana onasini ko‘tarishga urinar, ammo onasining ikki buklangan gavdasi negadir hech tiklanmas edi.

– Sut ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone’mat ovozi titrab. Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

– Zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone’mat yana o‘sha ohangda. Aftidan, u yig‘lay olmas, yig‘lashga madori yetmasdi.

– Kechayam aytuvdim, ko‘nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitolmadi. Foydasi ham yo‘q edi.

* * *

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go‘ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o‘zaro gapini eshitib qoldi.

– Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?

O‘tkir HOSHIMOV

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497